

TELEGRAM TARMOG'INING TA'SIRI

Odina A'zamqulova

Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi 19- maktabning 9-sinf o'quvchisi.

Anotatsiya: Ushbu maqola Telegram tarmog'ining bugungi kundagi ahamiyati, yutuqlari, muvoffaqiyati va yoshlarga ko'rsatayotgan ta'siridan kelib chiqqan xolda yozilgan.

Kalit so'zlar: Tajriba, ko'mak, Muvoffaqiyat, saboq, ibrat, taklif, xulosa

Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanidagi 19-maktabning 3- sinf o'quvchisi Malika Abdurazoqova 2022-yil o'tkazilgan onlana xalqaro IRN olimpiadasida qatnashdi va ulkan muvoffaqiyatni qo'lga kiritdi. Bu jajji qizaloqning yutug'idan nafaqat yaqinlari, balki ustozlari ham quvonishdi. Tahsil olish niyatida xattoki ustozining uyigacha borgan kunlari bo'lgan. Buni qarangki, barcha mehnat o'z xosilini berdi, Malika bilimidan foydalana oldi. Bu yutuqqa asos bo'lgan manbaa- Telegram...

Kishilar masofadan turib aloqa o'rnatish, xabarlashish, rasm, vido, audio va medafayllarni bir-biriga yo'llash, vidoqo'ng'iroq amalga oshirish kanal va guruhlarda yozishish hamda kuzatish kabi imkoniyatlarni bajaruvchi dastur telegram hisoblanadi. Wikipediyaning ko'rsatishicha 2018- yil martgacha telegram 200 millionlik faol fodlanuvchilarga erishdi. 2020- yil aprel oyidan 400 millongacha yetgani ma'lum qilindi. Kundan kunga omadi chopib borayotgan tarmoq ancha ommalashdi. 2021- yil mart oyida cheksiz foydalanuvchilarni qo'shgan xolda muloqot qilish imkonini beruvchi ovozli chatni taqdim etdi. Shuni ham aytib o'tish kerakki telegram ko'plab odamlarning quvonchi va muvoffaqiyatiga sababchi bo'lmoqda.

Telegram foydalanuvchilarning ko'p qismini asosan yoshlar tashkil etadi. Guruch kurmaksiz bo'lmagani kabi ba'zilar telegramda safsatabozlik uyushtirayotgani ham sir emas. Behuda chatlar esa o'z-o'zidan vaqtimizni o'g'irleydi. Magnit kabi barchani o'ziga tortuvchi telegram kanallaridan istaganingizcha ma'lumot olishingiz, vido, rasm va medafayllarni yuklashingiz yoxud o'zgalarga ulashishingiz mumkin. To'g'ri maqsadli foydalanayotgan yoshlar uchun tarmoq juda ham qulay desam adashmayman. Misol uchun siz dunyoning u chekkasida yashaydigan qarindoshlaringiz, do'st- birodarlaringiz bilan telegramda vidoqo'ng'iroq yoki yozishmalar orqali har kuni suhbatlashishingiz mumkin. Mahoratingizni telegramdan kanal ochib obunachilaringizga taqdim etishingiz va shu orqali o'z ishingizni ustasiga aylanishingiz mumkin.

Ammo ba'zida telegramdan foydalanayotganimda har - xil reklamalar paydo bo'ladi. Telegramdagi bu reklamalarning foydalanuvchilarga ta'siri qanday bo'lishini o'ylab ko'rganmisiz? Nafaqat telegramdan, balki Shareit ilovasidan ham kelayotgan reklamalar o'zining sifatsizligi va hayosizligi bilan odamlar ongiga salbiy ta'sir etayotganini payqash qiyin emas. Men bu xolatni ko'p kuzatdim. Balki shu muommoga yechim topish vaqti kelgandir. Bu borada mening taklifimni ham inobatga olishingizga umid bog'layman. Taklifim, maktab o'quvchilari uchun informatika yoki Tarbiyali soat darslarida praffisional telefon ustasi kelib, aynan telegramdan to'g'ri foydalanishning biz bilmagan sirlarini va dasturning muommoli vaziyatlaridan xalos bo'lish yo'llarini o'rgatsa nur ustiga a'lo nur bo'lar edi.

Bizga berilayotgan imkoniyatlarning tag-zamirida juda ulkan ishonch hamda mas'uliyat yotibdi. Faqatgina ushbu mas'uliyatga jiddiy qarab, ishonchni oqlash uchun harakat bizdan talab etiladi. Malikaning zehnidagi o'rnatilgan olib, biz ham tarmoqdan oqilona foydalanaylik. Zero, bizni kelajakda juda ulkan muvoffaqiyatlar kutmoqda.

Foydalanilgan malumot:

1. Wikipediya manbaasi